

**O‘ZBEK TILIGA O‘ZGA TILLARDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR
VA ULARNING TARIXI**

**LOANWORDS WHICH BORROWED FROM OTHER LANGUAGES
INTO THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR HISTORY**

Islomova Zilola Komiljon qizi

Zilolaislomova03@gmail.com

0009-0008-5994-7211

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tiliga o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlarning tarixi, qo‘llanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. O‘zbek tili ko‘plab tarixiy va madaniy aloqalar tufayli o‘z so‘z boyligini turli tillardan o‘zlashgan so‘zlar orqali kengaytirgan. Arabcha, forsha, ruscha so‘zlar shular jumlasidandir. Bu kabi boshqa tillardan kirgan so‘zlar o‘zbek tilning turli sohalarida, kundalik hayot, ilm-fan, texnika va madaniyatda keng qo‘llaniladi. Maqolada o‘zlashgan so‘zlarning o‘zbek tiliga moslashish jarayonlari, ularning tarixi va lingvistik xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Annotation: This article analyses the history, usage, and development of loanwords in the Uzbek language. Uzbek language has expanded its vocabulary with words which borrowed from various languages because of numerous historical and cultural connections. There are Arabic, Persian, and Russian words. Such loanwords are widely used in various fields of the Uzbek language, including daily life, science, technology, and culture. The article discusses the processes of adaptation of loanwords into the Uzbek language, their history and linguistic characteristics.

Аннотация: Эта статья анализирует историю, использование и развитие заимствованных слов в узбекском языке. Узбекский язык расширил свой словарный запас за счет слов, заимствованных из различных языков, благодаря многочисленным историческим и культурным связям. Сюда входят арабские, персидские и русские слова. Такие заимствованные слова широко используются в различных областях узбекского языка, включая повседневную жизнь, науку, технику и культуру. В статье рассматриваются процессы адаптации заимствованных слов в узбекский язык, их история и лингвистические характеристики.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tili, o‘zlashgan so‘zlar, arabcha so‘zlar, forsha so‘zlar, ruscha so‘zlar, lingvistika, til rivojlanishi, semantik o‘zgarish, madaniy aloqalar, introlingvistik omil, ekstrolingvistik omil.*

O‘zbek tili o‘zining ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida lug‘at tarkibini o‘z ichki manbalari hisobiga boyitib, takomillashtirib keldi. Bunday qonuniyatga ko‘ra, o‘z qatlam negizlari asosida yangi so‘zlar yasaldi, mavjud so‘z ma’nolari kengaytirildi, ba’zi so‘zlarga qo‘shimcha vazifalar yuklandi, adabiy tilga xalq shevalarida turli davrlarda, ehtiyojga ko‘ra, so‘zlar qabul qilindi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim asos hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o‘z ichki manbalarigagina tayanib ish ko‘rmaganidek, o‘zbek tili uchun ham faqat o‘z so‘zlari, o‘z qatlam boyligi va imkoniyatlarigagina kifoya qilmaydi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyish va takomillashuvida tashqi manba muhim rol o‘ynaydi. Umuman har qanday til sof holda yashay olmaydi. Turli tillarning turli tarixiy sharoitlarda o‘zaro ma’lum munosabatda bo‘lishi qonuniy holdir. Bunday munosabat aloqada bo‘lgan tillar rivojida ayniqsa uning lug‘at tarkibida ma’lum izlarni qoldirishi mumkin. Shu sababli ham dunyodagi barcha tillar lug‘at tarkibidagi, jumladan o‘zbek tilining lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlar uchun umumiy bo‘lgan ikki omil kuzatiladi:

1. Introlingvistik omil.
2. Ekstrolingvistik omil.

Introlingvistik (lisoniy) omillar¹. Bularga muayyan tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari - fonemalar tizimi, lug‘at boyligi, morfema tiplari, so‘z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida-qonuniyatlarni natijasida so‘zlarning rivojlanishi kiradi. Adabiy til taraqqiyoti, birinchi navbatda, mana shu omillarga tayanadi. [Jamolxonov 2001,7]

Ekstralingvistik (nolisoniy) omillar². Bular tildan tashqarida mavjud bo‘lgan faktorlar bo‘lib: ijtimoiy tuzum formalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyg‘ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlarnind so‘zlarga ta’siri hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, uning ijtimoiysiyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy hayotida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi: bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni boshlandi, milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning yangi shakllari yuzaga keldi. Bularning barchasi o‘zbek tili leksikasiga ham ta’sir o‘tkazdi: sobiq ittifoqdagi davlat tuzumiga xos ayrim tushuncha nomlari (partkom, raykom, obkom, sovxoz, oblast kabi so‘zlar) iste’moldan chiqib, o‘zbek tili lug‘at boyligining tarixiy qatlamiga o‘tib qoldi, ularning

¹ Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, 7-bet

² Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, 2001, 7-bet

o‘rnida hozirgi mustaqil O‘zbekiston hayoti taqozo qilgan yangi so‘z va atamalar (kollej, litsey, gimnaziya, litsenziya, reyting, test, marketing, minimarket, investitsiya, biznes kabilar) paydo bo‘ldi, hokim, hokimiyat, viloyat, tuman kabi leksemalarning mazmun mundarijasida hozirgi tuzumga xos yangi ma‘no qirralari yuzaga keldi, natijada bunday so‘zlar eski qatlamdan zamonaviy qatlamga o‘tib qoldi. [Jamolxonov 2001,7]

Hozirgi o'zbek adabiy tilining, ma'lumki, bir qator tarixiy ildizlari bor: a) eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr); b) qadimgi turkiy til (VII—XI asrlar); d) eski turkiy til (XI—XIII asrlar); e) eski o'zbek adabiy tili (XIV—XIX asrlar); 0 yangi o'zbek adabiy tili (XIX asming oxiri - XX asrning boshlari). O'zbek tili ana shu tarixiy ildizlardan o'sib chiqib, XX asming 30- yillarida hozirgi o'zbek adabiy tili shakliga kirgan³. [Abdurahmonov G \, Shukurov Sh, 1973,17-26]

O‘zbek xalqi, eng qadimgi turkiy urug‘ va qabilalardan kelib chiqqan, shu bois uning tili ham shu urug‘ va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo‘g‘ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo‘shnichilik munosabatlari ham o‘zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta’sir o‘tkazgan, bunda, ayniqsa, turkiy-arab, o‘zbek-arab, o‘zbek-tojik, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-qirg‘iz va o‘zbek-turkman bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo‘lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, hozirgi o‘zbek tilining lug‘at boyligida ikkita yirik qatlam — o‘z va o‘zlashgan qatlamlar borligi ma‘lum bo‘ladi.

O‘z qatlam⁴ - o'zbek tili leksikasining umumturkiy (*o'zbek tili leksikasining eng qadimgi lug'aviy birliklaridir. Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon tillarida ham saqlangan*) so'zlar va sof o'zbek so'zlaridan iborat qismlari. [Jamolxonov 2001,183]

Masalan: *bosh* (o‘zb.) - *bas* (qoz., qoraq.) - *bash* (qirg‘., turkm.); (o‘zb., qoz., qirg‘.) - (turkm., ozarb., gagauz.); *tog* (o‘zb.) - *too* (qirg‘.) - *tav, tau* (qoraq., qoz.) - *dag* (turkm., ozarb).

O‘zlashgan qatlam⁵- bu o‘zbek tili leksikasining boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalardan iborat qismidir. Masalan: maktab, oila (ar.), daraxt, gul (f-t.), axta, bahodir (mo'g'.), afandi (turk.), ravshan (sug'd.), traktor, avtobus (r-b.) va b.lar. Bu qismda arab, tojik-fors va rus tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. [NamDU-ARM-5382, 2024]

³ Abdurahmonov G \, Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T.: « O‘qituvchi». 1973, 17-26-b.

⁴ Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, 2001,183-bet.

⁵ https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/11/NamDU-ARM-5382-Hozirgi_Ozbek_adabiy_tili.pdf

Arab tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar. Bunday so‘zlarning o‘zlashtirilishi VIII asrdan boshlanib, IX-X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan so‘z o‘zlashtirilishiga olib kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol o‘ynagan:

- a) Arablar istilosi;
- b) Islom dinining keng tarqalishi;
- c) Arab yozuvining qo‘llana boshlanganligi;
- d) Madrasalarda arab tilining o‘qitilishi; 0 turkiy-arab ikki tilliligining (bilingvizmning) tarkib topganligi;
- e) Olim-u fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi va b.lar.⁶

O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ko‘pchiligi ot, sifat va ravish turkumlariga mansubdir:

Otlar - *abo* [choponga o‘xshash jun kiyim] Avrasi jun yoki boshqa matodan tikilgan uzun, keng, lekin yengi kalta erkaklar ust kiyimi. *Shayboniyxon boshiga qizil bo‘rk ustidan salla o‘ragan, ko‘k movutdan abo kiygan. P. Qodirov, “Yulduzli tunlar”.* Uning chakmonidan o‘tgan yomg‘ir kalta yenglik abosini nam qilgan edi. P. Qodirov, “Yulduzli tunlar”. [O‘zb.I.L.”A”.27]

Sifatlar - *azim* [ulug‘, buyuk, katta]

Ko‘rinish, tuzilish e‘tibori bilan g‘oyat katta, ulkan. *Azim terak. Azim tog‘lar. Azim daryo. Shahri azim. Eski Jo‘vada azim bir jamoa yig‘ib, Azizbek bilan bo‘lgan majorosini so‘zladi. A. Qodiriy, “O‘tgan kunlar”.Gunohi azim (azim gunoh)-katta gunoh. Behuda qon to‘kmoq, yutni parchalamoqdan azim gunoh yo‘q. Oybek, “Navoiy”. ...olimlarni xaqorat qilish va azoblash kechirib bo‘lmaydigan gunohi azim sifatida ta‘riflangan. E. Yusupov, “Istiqlol yo‘lida”* [O‘zb.I.L.”A”.49]

Bog‘lovchilar - *vaholonki* [xolbuki] Teng huquqli yoki zid ma‘noli gaplarni bog‘lash uchun xizmat qiladi; xolbuki. *Boybuchchadan gumonim yo‘q deyapsiz, vaholangki, sizni yo‘ldan urgan o‘sha. S. Yunusov, “Kutilmagan xazina”.*

Undovlar - *ajabo* [taajjub,qiziq] *Ajabo, bu qanday gap!* [O‘zb.I.L.”A”.43]

Modal so‘zlar - *albatta* [shubxasi]

1. Fikrning yoki ish-harakatning qat‘iyligini, murakkabligini, shubxasiz ekanligini bildiradi. *Qori o‘rikdan ikkitasini Sodiqjonga uzatdi:-“Zap o‘rik ekan-da, kanal bitib, suv serob bo‘lib, bog‘-rog‘lar qilganimizda, albatta, shuning danagidan ekamiz”.* A.Qahhor, “O‘shchinor chiroqlar”.
2. Kirish so‘z vazifasida. Shunday mazmunli munosabatni bildiradi; shubxasiz, turgan gap, tabiiy, bo‘lmasa-chi. *Men, albatta, ko‘zingizning oq-u qorasi bo‘lgan yolg‘iz qizingizni yaramas, bo‘lmag‘ur kishiga tutib berarsiz, deb bilmayman. A. Qodiriy, “O‘tgan kunlar”.* [O‘zb.I.L.”A”.68]

⁶ <https://www.scribd.com/presentation/797492486/OZLASJGAN-SO-ZLAR>

Yuklamalar - *xuddi* [o‘ziniki] Aynan, aniq. *Inobatning xuddi o‘ziga o‘xshagan nozikkina, qora qosh, qora ko‘z bir singlisi bore di. O. Yoqubov, “Er boshiga ish tushsa”. Bir oydan so‘ng xuddi shu katta bog‘da dang‘illama to‘y bo‘ldi. O‘. Hoshimov, “Qalbingga quloq sol”. Xuddi shu payt eshik g‘iyqillab ochildi. O‘. Hoshimov, “Qalbingga quloq sol”. [O‘zb.I.L.”X”.419-420]*

Ko‘makchilar – *binoan* [...ga asosan, ...ga ko‘ra] Nimagadir amal qilgan, asoslangan holda; muvofiq, ko‘ra. *Qulluq, chaqirganingizga binoan xizmatigizga keldik, nima deysiz. “Luqmoni Hakim”. Mazaxo‘raklarning buyurmasiga binoan, ofitsiant ustritsani likopchaga solib olib keladi. “Saodat” [O‘zb.I.L.”B”.266]*ham o‘zlashgan.

Fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar. Bu kabi so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida roli bor:

- a) O‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo‘shni) territoriyada, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma‘naviy muhitda yashab kelayotganligi;
- b) O‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi;
- c) Tojik va fors tillarida ijod qilish an‘analarining uzoq yillar davom etganligi;
- d) Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo‘lganligi;
- e) Adabiyot, san‘at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va b.lar.⁷

O‘zbek tilida tojik-fors tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar orasida:

Otlar- “*sartarosh*”

[soch-sokol oluvchi usta.]

-“*Xudoga shukur, mana, Mullajon sartarosh bo‘lib, kamlilik ko‘rayotgani yo‘q,*” -dedi *kampir Shodiga. E. Raimov, Ajab qishloq*

Yigit oynaga boqib, mo‘ylovini chimirib, sartaroshga rahmat aytdi. *Oybek, “Tanlangan asarlar”.*

Hunarmand [san‘at arbob; mohir, yuksak mahoratli; iste‘dodli, qobilyatli]

1. Uyida yoki o‘z do‘konida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi kasb-hunar egasi. *Davr taqazosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslasha boshladi. K. Yashin, “Hamza”*
2. O‘z kasbining mohir ustasi. *...bu yigitning kelishgan va harakatchan qomati odamlarning ko‘z oldiga kelib turadi. – “Ko‘p hunarmand yigit ekan, azamat!” -deyishadi. P. Tursun “O‘qituvchi” [O‘zb.I.L.”H”.562]*

Sifatlar: *baravar* [teng, bir xil; teng, qiymatli]-o‘lchami, soni, katta-kichikligi, hajmi, harakati jihatdan bir xil, teng. *Bo‘yi baravar devor. Baravar hajmli shishalar. Yoshi*

⁷ <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/download/10990/7884>

baravar bolalar. Baravar vaqt oraliqlar. Bolaga maktab ham oila ham baravar tarbiya berishi kerak. Gazetadan.

Anvar har kim uchun sevimli va xushmuomalasi barchaga baravar edi. Abdulla Qodiriy, “Mehrobdan chayon”.

Ikkala ot bir qiyomda, baravar qadam tashlab borar edi. A. Qahhor. “Asarlar”.

Baravar kelmoq-turli ko‘rsatkich va belgilarga ko‘ra baravar chiqmoq; teng kelmoq. *O‘zing bilasan qachon qarama katta-kichikka baravar, hamisha kambag‘allar foydasini ko‘zlaydi. X.Shams. “Dushman”. [O‘zb.I.L.”B”.161-162]*

Ravishlar: *astoydil* [yurakning chuqur joyidan]

1. Chin ko‘ngildan, sidqidil bilan. *U [Zebo] Elmurodni astoydil sevib qolgan edi. Shuhrat, “Shinelli yillar”. Bekor qilayotirsiz og‘a...men sizga astoydil xizmat qilmoqchi edim. S. Siyoyev, “Avaz”.*
2. Jiddiy ravishda; rostakamiga. *Safar akaning astoydil achchilanganini segan imom o‘rtaga tushdi. A. Qodiriy, “Mehrobdan chayon”. Astoydil kuyib gapirayotgan mehmon, Hakimjonning ko‘zi uyquga ketgandan keyingina to‘xtadi. “Sharq yulduzi”.*
3. Halollik bilan, vijdonan. *Hamma kecha demay, kunduz demay, astoydil ishlayapti. J. Sharipov, “Saodat”. [O‘zb.I.L.”A”.111]*

Undovlar: *balli* [ha, albatta, to‘g‘ri]

1.Ma‘qullash, tasdiqlash, maqtov, taxsin ma‘nolarini ifodalaydi [Joyni] *Oochlik yillari solganmiz. -Balli. A. Qodiriy, “O‘tgan kunlar”. “Balli, ona qizim”,- dedi Melivoy aka zavqlanib. S. Ahmad, “Ufq”. Izatulla aka bolaning boshini chipor shapkachasi ustidan silarkan: “Balli” deb qo‘ydi. Gazetadan. Uning fikrini ma‘qullovchi ovozlar eshitildi: - “Balli! Otangizga rahmat”. P. Tursin, “O‘qituvchi”.*

2.Cho‘zib talaffuz qilinganida norozilik, kesatiq ma‘nolarini ifodalaydi. –“Ko‘chada sen bilan yetaklashib yuradigan xotinga balli-ey!”-dedi Zumrad. S. Siyoyev, “Otlq ayol”. [O‘zb.I.L.”B”.150]

Yuklamalar: *xo‘sh*

1. So‘roq gap oldidan kelib, “ayting-chi”, “javob bering-chi”, “tushuntirib bering-chi” kabi ma‘nolarni ifodalaydi. *Xo‘sh, Sodiq polvon, ishlar qanaqa, Toshkentda nima gaplar bor? A.Qodiriy, “O‘tgan kunlar”.*
2. Qistash ma‘nosini ifodalaydi. –“*Xo‘sh, gapiringlar*”,- dedi Bo‘taboy. *A.Qahhor, “Qo‘shchinor chiroqlar”.*
3. Nutq jarayonida qo‘llaniladi. *Xo‘sh desangiz, Bog‘dod shahrida Abutanbal degan bir yalqov yigit o‘z onasi bilan Yashar ekan. G‘.G‘ulom, “Tirilgan murda”. [O‘zb.I.L.”X”.438]*

Modal so‘zlar: *binobarin* [shunga ko‘ra, shunga qarab] Shunga ko‘ra, shu sababli, demak. *Nazarida bu muhabbat hech kimnikiga o‘xshamas, binobarin, hech kim uni to‘la.. tasavvur etolmas edi. Shuhrat, “Shinelli yillar”. Binobarin, atmosferani pokiza*

tutmoq uchun barcha davlatlar hamjihat ish olib borishlari kerak. “Fan va turmush” kabilar uchraydi. [O‘zb.I.L.”B”.266]

Ruscha-baynalmilal so‘zlar⁸[Tavaldiyeva,20024] – o‘zbek tiliga rus tilidan va u orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan leksemalar:

Jurnal [gazeta, kundalik daftar]

1. Kitobcha yoki majmua shaklida belgili vaqtda chiqib turadigan belgili nashr. *Oylik jurnal. Jurnal ishiga obdon berilib ketdim. M.Jo‘ra, “Noshirnoma”. Stol ustida yangi gazeta, jurnallar. Sh. Rashidov, “G‘oliblar”*
2. Kundalik ish, voqea, hodisa va sh.k yozib boriladigan qayd daftar. *Kirgan chiqqan xatlar jurnali. O‘qituvchilar sinf jurnallarini ko‘tarishib, sinf-sinfga tarqab ketishdi. S. Zunnunova, “Yangi director”.*[O‘zb.I.L.”J”.114]

Radioaktiv [radio- lot ”radiare” nur chiqarmoq+ active- lot “activus” faol, harakatchan]

1. Radioaktivlikka oid. *Radioaktiv parchalanish. Bu ulkan apparat... radioaktiv parchalanish maxsulotlari hosil bo‘lishini o‘rganishda, hatto jismoniy ishlarni tekshirishda katta yordam berayotir. “Fan va turmush”.*
2. Radioaktiv xususiyatga ega bo‘lgan. *Radioaktiv izotoplar. Radioaktiv rudalar. Radioaktiv moddalar kontrabandasi bilan bog‘liq mazkur voqea yuzasidan hozir tekshiruv olib borilmoqda. Gazetadan. Fan va texnikada ham radioaktiv, ham turg‘un izotoplardan turli maqsadlarda keng foydalaniladi. “Fan va turmush”.* [O‘zb.I.L.”R”. 338]

O‘zbek tilining lug‘at tarkibi arab, fors-tojik va rus tillaridan kirib kelgan leksemalar ya’ni o‘zlashgan so‘zlar, tilning ichki lingvistik xususiyatlari natijasida turli o‘zgarishga uchragan birliklar orqali boyigan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bu jarayon o‘zbek tilining tarixiy ildizlari, uning ichki va tashqi omillarga moslashuvchanligi, shuningdek, madaniy hamkorlik va o‘zaro ta’sirlar orqali amalga oshgan. Shu sababli, o‘zlashgan so‘zlar hamda ularning tarixini o‘rganish, bu kabi so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish tilning kelgusidagi rivoji uchun muhim jihat hisoblanadi.

⁸ https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/27/Ozbek_tili_Tavaldiyeva.pdf

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” ,2001
2. Abdurahmonov G \, Shukurov Sh. O ‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T.: « O ‘qituvchi». 1973, 17 -26 -b.
3. Adabiyotshunoslik atamalarining izohliso’zligi F.Salaev G.Qurboniyozov Toshkent “Yangi asr avlodi ” – 2010
4. O‘zbek tili leksikologiyasi (jamo). – Toshkent, «Fan», 1981.
5. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘qituvchi,1975.
6. Mirtojdiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunuso., Abuzalova M.
8. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2010
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati “A”,”B”,”X”,”V”,”H” bo‘limlar. [”A”.27.49.43.68.111],[O‘zb.I.L.”X”.419-420.438], [O‘zb.I.L.”B”.266.161-162.150.266],[O‘zb.I.L.”J”.114], [O‘zb.I.L.”H”.562], [O‘zb.I.L.”R”. 338]
- 10.https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/11/NamDU-ARM-5382-Hozirgi_Ozbek_adabiy_tili.pdf
- 11.<https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tili-leksikasining-tarixiy-bosqichlari>.
- 12.https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/27/Ozbek_tili_Tavaldiyeva.pdf
- 13.<https://www.scribd.com/presentation/797492486/OZLASJGAN-SO-ZLAR>
- 14.<https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/download/10990/7884>